

BAS GITARA CHOLG'USINING SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

Kabilov Baxtiyorjon Kamildjanovich

Annotatsiya: *Maqolada bas gitaraning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va jahon musiqa madaniyatidagi roli tahlil qilinadi. Qadimgi torli cholg'ulardan XX asr kontrabas va elektr bas gitaraga, ritm-n-bluz, jaz, rock va XXI asr raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuviga qadar bas gitaraning texnik, estetik va pedagogik ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *bas gitara, klassik gitara, musiqiy ijrochilik, elektr bas, musiqiy pedagogika, ritmik va garmonik funktsiya, musiqiy texnologiyalar, jahon musiqa madaniyati.*

Аннотация: *В статье анализируются формирование и этапы развития бас-гитары и её роль в мировой музыкальной культуре. От древних струнных инструментов до контрабаса и электробас-гитары XX века, до её интеграции с ритм-энд-блюзом, джазом, роком и цифровыми технологиями XXI века, освещается техническое, эстетическое и педагогическое значение бас-гитары.*

Ключевые слова: *бас-гитара, классическая гитара, музыкальное исполнение, электробас, музыкальная педагогика, ритмическая и гармоническая функция, музыкальные технологии, мировая музыкальная культура.*

Bas gitara zamonaviy musiqa ijrochiligi tizimida muhim o'rin tutuvchi cholg'u bo'lib, uning vujudga kelishi va evolyutsiyasi XX asr musiqa industriyasining jadal rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Cholg'uning shakllanish jarayonida texnik hamda akustik imkoniyatlarning bosqichma-bosqich kengayishi, turli ijrochilik maktablarining yuzaga kelishi va jahon musiqa madaniyatiga ko'rsat marksli ta'siri kuzatiladi. Mazkur omillar bas gitaraning nafaqat amaliy ijrochilikda, balki musiqiy ta'lim va pedagogik faoliyatda ham muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega ekanini belgilab beradi. Bas gitara tarixi insoniyatning eng qadimgi torli cholg'ular evolyutsiyasi, past registrdagi tovushlarga bo'lgan ehtiyoji va bunday tovushlarning musiqiy tizimdagi funksional roli bilan uzviy aloqada shakllangan bo'lib, uning taraqqiyotini tushunish uchun avvalo past tonallikdagi torli cholg'ularning tarixiy ildizlarini tahlil qilish zarur.¹⁹

Musiqa amaliyotining dastlabki bosqichlaridayoq past tovushlar ansambl va jamoaviy ijrochilikda ritmik barqarorlikni ta'minlovchi hamda garmonik poydevorni mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lgan. Qadimgi Mesopotamiya, Misr, Hindiston va Xitoy madaniyatlarida past registrda jaranglaydigan, uzun korpusli torli cholg'ular keng qo'llanilgan bo'lib, ularning asosiy funksiyasi musiqa jarayonida quyi tovush qatlamini shakllantirish, ritmik tuzilmani belgilash hamda vokal va yuqori registrli cholg'ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lgan.

Yevropa musiqa tarixida esa past registrli cholg'ular rivoji viola da gamba oilasiga mansub basso da gamba hamda barokko davrida mustaqil shakllangan kontrabas bilan

¹⁹ www.wikipedia.ru

uzviy bog'liqdir. Kontrabas uzoq vaqt davomida orkestr va ansambl ijrochiligida yetakchi quyi tovush manbai sifatida xizmat qilib, garmonik qatlamni mustahkamlash va ritmik barqarorlikni ta'minlash vazifasini bajargan. Mazkur funksional xususiyatlar keyingi davrlarda bas gitaraning musiqiy tizimdagi asosiy roli shakllanishiga nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilgan. XX asrning dastlabki o'n yilliklariga kelib, kontrabas ijrochilik amaliyotida mavjud bo'lgan bir qator funksional va texnik cheklovlar tobora yaqqol namoyon bo'la boshladi. Cholg'uning hajman kattaligi, sahna sharoitida hamda tashish jarayonidagi noqulayliklari, shuningdek, tovush kuchining nisbatan pastligi va attaka jarayonining sustligi jaz, bluz va ritm-n-bluz kabi yangi shakllanayotgan, kuchli ritmik tayanch va yuqori dinamikani talab etuvchi musiqiy yo'nalishlarda muayyan muammolarni keltirib chiqardi. Jaz orkestrlarining tarkibiy jihatdan kengayib borishi va zarbli hamda boshqa ritmik cholg'ularning tovush qudrati oshib borishi natijasida kontrabasning tabiiy akustik imkoniyatlari yetarli bo'lmay qoldi. Bundan tashqari, mazkur musiqiy uslublarda tezkor groove, sinkopali ritmik tuzilmalar va agressiv ritmik ifoda ustuvor ahamiyat kasb etgani sababli, kontrabas bunday vazifalarni texnik hamda akustik nuqtai nazardan to'liq va samarali bajarish imkoniyatiga ega emas edi. Ushbu holat, o'z navbatida, kuchli tovushga ega, aniqligi yuqori, tashqi sharoitlarga moslashuvchan va amaliy jihatdan qulay yangi turdagi cholg'uga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytirdi. Mazkur ehtiyoj ta'sirida XX asrning 1940–1950-yillarida elektr bas gitarani yaratishga qaratilgan izlanishlar boshlandi. Zamonaviy bas gitaraning shakllanishi amerikalik ixtirochi va soz yasovchi Leo Fender faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. U 1951 yilda dunyo miqyosida tijoriy muvaffaqiyat qozongan ilk elektr bas cholg'usi — Fender Precision Bassni taqdim etdi. Cholg'uning "Precision" nomi tasodifiy tanlanmagan bo'lib, undagi lad tizimi intonatsiyani aniq nazorat qilish imkonini yaratdi va bu xususiyat kontrabas bilan qiyoslaganda sezilarli ustunlik sifatida namoyon bo'ldi.

Precision Bass musiqa tarixida texnik, akustik va ergonomik nuqtai nazardan muhim burilish yasadi. Solid-body konstruksiyasi tovush rezonansini elektr signal orqali barqaror uzatishni ta'minladi, magnit pikaplar esa tovushni kuchaytirish jarayonining aniqligi va barqarorligini oshirdi. Cholg'uning nisbatan ixcham o'lchamlari esa ijro jarayonida qulaylikni sezilarli darajada kengaytirdi. Natijada Precision Bass jaz, bluz, kantri hamda ritm-n-bluz ansamblarida tez fursatda keng tarqalib, kontrabas bajarib kelgan bir qator funksional vazifalarni bosqichma-bosqich o'z zimmasiga ola boshladi. 1950–1960-yillar bas gitaraning keng miqyosda ommalashuvi va ijrochilik amaliyotida mustahkam o'rin egallagan davr sifatida tavsiflanadi. Ayniqsa ritm-n-bluz musiqasi bas gitaraga nisbatan yangi texnik va badiiy talablarni shakllantirdi. Motown studiyasining mashhur bas ijrochisi Jeyms Jemerson bas partiyasiga garmonik jihatdan murakkab tuzilmalar, sinkopali ritmik shakllar, xromatik o'tishlar hamda melodik yondashuvlarni joriy etib, zamonaviy bas ijrochiligining nazariy va amaliy asoslarini yaratdi. Uning ijodiy uslubi bas gitarani faqat ritmik tayanch vazifasini bajaruvchi cholg'u sifatidagi an'anaviy talqindan chiqarib, uni garmonik tafakkurga ega, musiqiy to'qimani boyituvchi va melodik rivojlanishda faol ishtirok etuvchi ijodiy ifoda vositasiga aylantirdi.

Rok-n-roll musiqasining jadal rivoji jarayonida bas gitara ansambl tuzilmasida tobora muhimroq ahamiyat kasb eta boshladi. Pol Makkartni bas gitarani melodik struktura doirasida faol qoʻllagan ilk yirik bas ijrochilaridan biri boʻlib, uning ijrosiga xos lirizm hamda ijodiy melodik yoʻllar rok bas ijrochiligining oʻziga xos uslubiy maktabini shakllantirdi.

Jon Entuistl esa rok musiqasida bas gitaraning texnik va ekspressiv imkoniyatlarini keskin kengaytirib, uning agressiv, kuchli va yuqori tezlikdagi ijro shakllarini rivojlantirdi. Natijada bas gitara rok musiqasida nafaqat garmonik va ritmik tayanch, balki mustaqil badiiy ifoda vositasi sifatida qaror topdi.

XXI asrga kelib bas gitara ijrochiligi raqamli texnologiyalar bilan faol integratsiyalashdi. Effekt protsessorlari, tovush simulyatorlari, raqamli platformalar, virtual studiya muhitlari hamda yuqori aniqlikdagi pikaplarning joriy etilishi bas tovushining ifodaviy imkoniyatlarini nafaqat jonli ijroda, balki studiyaviy yozuv jarayonlarida ham sezilarli darajada kengaytirdi. Bugungi kunda bas gitaraning funksional doirasi ancha kengayib, u faqat ritmik tayanch vazifasini bajaruvchi cholgʻu sifatida emas, balki kompozitsion unsur, sound-dizayn manbai hamda ijrochilik innovatsiyalarining muhim markazlaridan biri sifatida namoyon boʻlmoqda. Bas gitara rivojlanish tarixi shuni koʻrsatadiki, uning har bir evolyutsion bosqichi musiqa industriyasidagi global jarayonlar, texnologik yangiliklar, ijrochilik talablarining ortib borishi hamda musiqaning ritmik va garmonik tuzilishidagi yangilanishlar bilan bevosita bogʻliq boʻlgan. Hozirgi kunda bas gitara jahon musiqa madaniyatining deyarli barcha yoʻnalishlarida faol qoʻllanilib, har bir davrning estetik talablari asosida oʻz ifodaviy imkoniyatlarini yanada boyitib bormoqda. Shu sababli mazkur cholgʻu tarixini chuqur va tizimli oʻrganish bas gitara pedagogikasining ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Gitara bugungi kunda nafaqat musiqa olamining eng ommaviy cholgʻusi, balki global madaniyatning ajralmas ramzidir. Milliy folklor musiqa asarlaridan tortib, simfonik orkestr ijrosigacha, jaz klubidan tortib rock kontsertlarigacha — gitara har bir musiqiy makonda oʻz oʻrniga ega. Uning bunday mashhurligi cholgʻuning texnik imkoniyatlari, ijrochilik uslublarining kengligi, tashilishi qulayligi va ovoz chiqarish doirasining cheksizligi bilan bogʻliq. Jozibali tembri, ritmni ushlab turishdagi qulayligi va akkordlar boyligi gitara sanʼatini doimiy ravishda yangi janrlar sari yetaklab kelmoqda.

Tarixiy manbalarga koʻra, gitara cholgʻusining dastlabki prototiplari qadimgi Hindiston, Xitoy, Mesopotamiya hamda Misr hududlarida keng tarqalgan torli cholgʻular bilan uzviy bogʻliqdir. Arxeologik tadqiqotlar natijalarida miloddan avvalgi IV–III asrlarga mansub, shakli va tovush chiqarish prinsipi jihatidan gitaraga yaqin boʻlgan cholgʻu namunalari aniqlangan. Andalusiya hududining arablar tomonidan zabt etilishi natijasida Ispaniyada “ud” cholgʻusi keng yoyildi va mahalliy musiqiy anʼanalar taʼsirida qayta ishlanib, yangi tembriy hamda konstruktiv xususiyatlarga ega cholgʻu shakllandi.

XVIII asrda italiyalik mashhur cholgʻu ustasi Antonio Torres gitara korpusining hajmini kattalashtirib, rezonans tizimini mukammallashtirdi, natijada zamonaviy klassik gitara shakli vujudga keldi. Ushbu konstruktiv yangilanishlar gitaraning akustik

imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirib, uning professional musiqa amaliyotiga kirib kelishiga zamin yaratdi. Shundan so'ng gitara akademik musiqa ta'limi tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Andres Segoviya J. S. Bax, I. Albenis, F. Tarrega hamda boshqa bastakorlarning asarlarini gitara uchun moslashtirib, ushbu cholg'uni ilk bor yirik simfonik zallar sahnasiga olib chiqdi. Uning faoliyati natijasida gitara yakka konsert cholg'usi sifatida e'tirof etilib, akademik musiqa makonida mustahkam o'rin egalladi. Bugungi kunda klassik gitara musiqa bilim yurtlari, oliy musiqiy ta'lim muassasalari va konservatoriyalarda mustaqil ta'lim yo'nalishi sifatida o'qitilmoqda. Klassik gitara san'ati taraqqiyotida bir qator buyuk ijrochilar va bastakorlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Fernando Sor (1778–1839) gitara uchun ilk yirik hajmli kompozitsiyalar muallifi sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Mauro Giuliani (1781–1829) esa virtuoslik texnikasiga asoslangan ijro uslubini rivojlantirib, gitara ijrochiligining texnik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Andres Segoviya (1893–1987) esa gitarani to'laqonli akademik sahnaga olib chiqib, klassik repertuar shakllanishiga beqiyos hissa qo'shdi. Bas gitara jahon musiqa madaniyatida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lgan eng muhim cholg'ulardan biridir. Uning funksional mohiyati, estetik imkoniyatlari, ijrochilik texnikasi va kompozitsion ahamiyati uning dunyo bo'ylab keng tarqalishiga, turli musiqiy yo'nalishlar asosiy elementiga aylanishiga sabab bo'lgan. Bas gitara musiqiy tilning ritmik, garmonik va faktura jihatlarini uyg'unlashtirgan holda ijro jarayonining tayanch qismini tashkil qiladi va shu xususiyati uni jahon musiqa madaniyati tarixida eng zarur cholg'ulardan biriga aylantirgan. Bugungi kunda bas gitaraning global madaniyatdagi o'rni faqat musiqiy sahna bilan chegaralanmaydi. U kino sanoati, o'yin industriyasi, reklama musiqasi, multimediali san'at, teatr va eksperimental san'at loyihalarida asosiy tovush dizayn elementiga aylangan. Past chastotalarning inson psixologiyasiga kuchli ta'siri, energiya va dinamikani boshqarishdagi o'rni bas gitara va uning elektron analoglarini san'atning har qanday turida talabgir qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bas gitara jahon musiqa madaniyatini shakllantiruvchi asosiy kuchlardan biri bo'lib, uning tovush tizimidagi roli melodiyaning ko'ra chuqurroq darajada — ritmik, garmonik va psixoakustik qatlamlarni boshqarish bilan bog'liqdir. Bu esa bas gitaraning nafaqat musiqiy, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlardagi ahamiyatini ham oshiradi.

Bugungi kunda bas gitara O'zbek musiqa maktabi va konservatoriyalarida o'qitiladigan mustaqil yo'nalish sifatida mavjud. Bu sohada ustozlar va tajribali ijrochilar tomonidan maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Talabalar bas gitara orqali ritmik barqarorlik, garmonik fikrlash, ansamblda koordinatsiya va mustaqil melodik ijro ko'nikmalarini egallaydi. Shu bilan birga, bas gitaraning xalq va estrada musiqasidagi integratsiyasi uning nafaqat sahnadagi, balki pedagogik ahamiyatini ham oshiradi.

Xulosa qilib aytganda: Bas gitara XX–XXI asrlarda ritmik va garmonik tayanch hamda mustaqil badiiy ifoda vositasi sifatida shakllandi. Qadimgi cholg'ulardan elektr

bas va raqamli texnologiyalarga qadar rivojlanib, global cholg'uga aylandi va pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yo'ldoshev A. O'zbek maqom an'alarini klassik gitara ijrosida qo'llash tajribalari. San'atshunoslik muammolari, 2019. 3(19), 75-82.
2. Aguado, D. Nuevo Método para Guitarra. Madrid. 1843.
3. Romas P. The Art of Classical Guitar Improvisation. London: Routledge. 2018. — 210 p.
4. Каминский, В. П. История гитарной импровизации в Европе XVI–XX веков. Москва: Музыка. 2020. — 128 с.